

HARBIY OLIYGOH TINGLOVCHILARIDA VIJDON VA MA'NAVIY JAVOBGARLIK TARBIYA HISLARINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10437284>

Ganiyev Feliks Adilovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada harbiy oliygoh tinglovchilarida ma'naviy -ma'rifiy ishlarning ahamiyati haqida kerakli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari ma'naviy -ma'rifiy ishlar darsdan va darsdan tashqari bo'lgan holatlarda tizimli tarzda olib borilishi haqida fikrlar keltirilgan

Kalit so'zlar

Oliygoch, vijdon, pedagogika, ma'naviyat, tarbiya, rivojlanish, taraqqiyot, fan, madaniyat.

ФОРМИРОВАНИЕ СОЗНАНИЯ И НРАВСТВЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ВИДЫ ОБРАЗОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ ВОЕННЫХ ВУЗОВ

Аннотация

В данной статье приведены необходимые сведения о значении духовно-просветительской работы для курсантов военного вуза. Кроме того, есть мнения о систематическом ведении духовно-воспитательной работы на уроках и во внеурочной обстановке.

Ключевые слова

университет, совесть, педагогика, духовность, образование, развитие, прогресс, наука, культура.

FORMATION OF CONSCIENCE AND MORAL RESPONSIBILITY EDUCATION TYPES IN MILITARY UNIVERSITY STUDENTS

Abstract

This article provides necessary information about the importance of spiritual and educational work for students of a military university. In addition, there are opinions about the systematic conduct of spiritual and educational work in the classroom and extracurricular situations.

Key words

University, conscience, pedagogy, spirituality, education, development, progress, science, culture.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamaksining 1997 yil 28 fevraldagi 116-qaroriga binoan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi farmonida, kadrlar tayyorlash masalasida alohida to'xtalib qayd qilingan. "Harbiy bilim yurtlari va fuqarolik oliygohlarning harbiy kafedralari oldiga o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarib, ta'lim-tarbiyaning yangi prinsipial uslublariga, zamonaviy pedagogika va axborot texnologiyalariga katta e'tibor berib, yoshlarni milliy istiqloq, ma'naviy, mafkuraviy va madaniy asosida tarbiyalash, Vatanga muhabbat mustaqil g'oyasiga sodiq-sadoqat ruhida tarbiyalash har bir o'quv yurtining asosiy vazifasidir". Tarbiya jarayonida xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlarini, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch, ularni Vatanga muhabbat, osoyishtalik va farovonligini anglash, halollik, mardlik va sabr-bardoshlikni adolat tuyg'usini tarbiyalash yo'lida tarbiya qilishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash kafolatlari batafsil e'tirof etilgan. Siyosiy barqarorlik murakkab va ko'pqirrali tushunchadir. Bu tushuncha o'ziga turli siyosiy subyektlar-xalqlar, millatlar ijtimoiy harakatlarning o'zaro aloqalari tizimini anglatadi. Hozirgi demokratik huquqiy davlatini shakllantirish jarayonida jamiyatimizning osoyishtaligini, farovonligini ta'minlash demokratiyaning inson huquqlarini himoya etish, xavfsizlikni barqaror qilishda hamkorlikni mustahkamlash va Qurolli kuchlarni erkinlashtirish muhim ahamiyatga ega. Siyosiy xavfsizlikning, osoyishtalikning ichki siyosiy, mintaqaviy va xalqaro turlari mavjud. Ichki siyosiy xavfsizlikni ta'minlashda jamiyatning siyosiy xavfsizlikni ta'minlashda jamiyatning siyosiy tizimi qismlari davlat uning organlari (siyosiy partiyalar; jamoat birlashmalari va ijtimoiy harakatlar) faoliyati asosiy omil hisoblanadi.

Hozirgi davrda ko'p jihatdan yuksak ma'naviy ongini shakllantirish, kishilarning hayot va turmushga munosabatini tubdan o'zgartirish, ularda yangicha tafakkur va dunyoqarashni vujudga keltirishni talab etmoqda. Tarbiyani yangi sifatli holatiga o'tkazish vazifalarini amalga oshirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohalarda tub burilishlarini taqozo qiladi. Bu vazifani hal

etish har jihatdan inson faoliyati, uning ijodiy faolligi va tashabbuskorligi, o'z burchi, vijdoni, topshirilgan ishga ongli munosabati va sadoqati, ya'ni shaxsning ma'naviy yetukligiga bog'liq. Vijdon, iymon, e'tiqod va shaxs insonning faoliyatiga, intilishlariga baho bera olishiga imkoniyat yaratadigan ma'naviy javobgarlikdir. Vijdon-ma'naviy javobgarlikni asosiy o'zagi hisoblanadi. Undan ma'lum bo'ldiki, vijdon-insonning o'z faoliyatini, qilgan ishlari va belgilangan maqsadlarini ichki ruhiy tahlil eta olish imkoniyatidir. Ma'naviyatning kuchi, qudrati ham har bir shaxs o'z qilmishiga o'zi xolisona baho bera olish darajasi bilan belgilanadi. Vijdon shaxsning o'ziga xos hayotga, past-balandlikka, bor-yo'qqa muvozanat tuta oladigan, ya'ni shaxsning tarozisi sifatida xizmat qiladigan fazilatlaridan biridir. Yaxshi, ajoyib, fazilatli kishi deganimizda, albatta ko'z oldimizda vijdonli kishilarni ma'naviy xislatlari gavdalanadi. Chunki vijdonli, insofli kishining ishi, pok, sifatli, bo'ladi. Shu nuqtai nazardan o'tmishimizda vijdon haqida shunday deyilgan; "Har bir kishi vijdonining quli bo'lishi kerak". Shaxsning vijdon tarozisi har xil bo'ladi. Hayotda hech insonlar yo'qki, ular xarakteran, pedagogik-psixologik xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshab ketsa. Shu sababli vijdonlilik xususiyatlari ham bir-biriga o'xshashi mumkin emas. Vijdon azobi shaxs hayotida, tarbiyada o'zi yo'l qo'yan xatolari, jamiyatda bo'layotgan nohaqliklar, adolatsizliklarni bilib, ko'rib, ruhiy qiynalish holatida bo'lishdir. Vijdon azobi shaxs faoliyatidagi adolatsizliklarni ruhan qabul qilmaslik ularga nisbatan ichki nafratni, salbiy munosabatni ifodalashdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Abdulla Avloniyning vijdon haqida quyidagi fikrlari bu muammoni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi: "Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan hissiyot, ya'ni sezuv, to'yimakdan iborat quvvatni aytur. Biz hamma vaqt faol va harakatimizning yaxshi va yomonligini, foydali va zararliligini (ana shu) vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon inson aql va fikrining haqiqiy mezonidirkim, bu tarozi ila o'z kamchiliklarimizni o'lchab bilmoq ila barobar, boshqalarning ham faol va harakatini sezurmiz. Agar kishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qo'yib, agar qabohat va yomon ishlar bo'lsa, nafrat qilur. Biz janobi Xalqning amri (ma'rufi) va nahiyini (tahqiqklarini) fikr va ruhimiz mana shu quvvati o'lan vijdonimiz ila ayra bilurmiz".

Arastu hakim vijdonni talqin qilib shunday degan: "Ruhimizning ma'naviy quvvati bilan vijdonimiz, fikrimiz quvvati bilan vijdonimiz, fikrimizga quvvat beruvchi bir vositayu idrokiyatdir". Shu haqda insonni ruhiy hissiy siymosini yaxshi tahlil qilib chiqqan allomalarimiz Ibn Sino Shunday degan: "Vijdon ruh va fikrimizni tuyg'un qilmoqlikning birinchi vositasidir". Vijdon tarbiyasi juda

yoshlikdan, hayotga qadam qoʻygan chogʻda, boshlanmogʻi lozim. Uning oddiy insoniy munosabatlarida namoyon boʻlishi, insonparvarlikda, iqtisodda vijdoniy munosabatlarning ustuvorligiga erishish lozim. Abdulla Avloniy vijdonni insonning oynasi deb biladi: “Al hosil vijdon har kimning faol harakatini koʻrsatadigan musaffo bir oynadurki, bir koʻzguga chin nazar qilgan kishi oʻz aybi va kamchiligini tuzatmoq harakatida boʻlib, boshqalarning aybi va qusurini axtarmoqqa vaqti boʻlmas”. Ibn Sino hakim quyidagi misralarida vijdonni komillik mezonini deb atalgan:

Sof vijdon kabi hech komili mezon oʻlmas,

Kishi oʻz aybini bilmak kabi urfon oʻlmas.

Albatta ofitserlar tarbiyasida vijdon tarbiyasining roli yuksak boʻlmogʻi lozim. Bunda kishining oʻz vijdoni oldida hisob bermogʻini, zavqlanish, huzurlanish, halovat, obroʻ, qadr-qimmatining vijdon tarozisi ila qaramogʻini uqdirmoq kerak.

Har bir ofitser oʻz-oʻziga, kasbiga, davlatiga, xalqiga, insoniyatga, olamga vijdonli munosabatda boʻlishi kerak. Harbiy xizmatda har doim Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, mardlik va jasurlik maktabi sanalgan. Bu maktab harbiy ixtisoslikni egallash, harbiy xizmat mohiyatini, harbiy intizom va harbiy nizomlar talablarini tushunish, harbiy qasamyoddagi huquqiy meʼyorlar bilan mustahkamlab qoʻyilgan oʻz harbiy burchini vijdon erkinligi asosda anglashdan boshlanadi. Maʼnaviyatda bosh oʻrin tutgan omillar, komil insonga xos fazilatlardan iborat.

Fazilatlarning eng muhimlaridan biri maʼnaviyatlilikdir. Maʼnaviyatimiz tarixida insonlar borki, ular oʻzlarining butun faoliyatlarini xalq manfaatlariga yoʻliga baxshida etganlar. Mana shunday insonlardan biri, maʼrifatparvar, axloqshunos, islomshunos, pedagog Munavvar Qori Abdurashidxon oʻgʻlidir. Jadidlar tomonidan 1906 yil 14 iyunda “Taraqqiy” nomli gazeta nashr qilina boshlangan. Uning tashabbuskorlaridan biri Munavvar Qori edi. Bu gazeta oʻzining sahifalarida usuli jadid maktabi maʼrifatparvarlikning ayni kundagi ahamiyati va hurfikrlik borasida keng targʻibot ishlarini olib borgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Jamiyatimizda Qurolli Kuchlarda vatanparvarlik, harbiy va maʼnaviy tarbiya yoʻnalishlari boʻyicha shaxsiy tarkibni tarbiyalashning qatʼiy tizimi yuzaga keldi va hozirda u yanada takomillashtirmoqda. Boshqa mamlakatlarning tajribalari shuni koʻrsatmoqdaki, taʼlim-tarbiyaning yangi tizimiga oʻtishning shartlaridan biri tarbiyaviy ishlar mexanizmlarini tubdan oʻzgartirish, yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning oʻziga xos ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, shaxsiy tarkibga oid masalalarni aniq va ravshan tushuntirish maqsadiga

muvofiqdir. Bizga ma'lumki, iqtisodiyot va ma'naviyat jamiyat hayoti taraqqiyotining o'zaro ajralmas ikki muhim tomonlaridir. Ular bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab o'zaro ta'sir asosida rivojlanib va takomillashib boradi.

Ma'naviy javobgarlikni, uning inson, xalq va millat, jamiyat va davlatning kuch-qudrati manbai ekanligini, ma'naviyat bo'lmagan joyda baxt-saodat ham, iymon-e'tiqod ham, el-ulusda din-u-diyonat ham bo'lmasligini kishilar ongiga sindirish milliy istiqloq mafkuramizning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Yuksak madaniyat va ma'rifat sohibi bo'lgan xalq va millat o'z-o'zini va o'zga xalqlarni qadrlaydi, qaddini tik tutadi, o'tmishi bilan faxrlanadi, kelajakka umidvorlik bilan qaraydi. Ma'naviy javobgarligi xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi, Uni o'lchab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olam, ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir. Shularni inobatga olgan holda quyidagi fikrlarni taklif qilaman.

Harbiylar orasida ilm-fan, adabiyot, san'at, xullas ma'naviy madaniyatni boyitish va takomillashtirish, umuminsoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish g'oyalarini tadbiq qilish.

Hozirgi kunda harbiylarning ongini har xil keraksiz narsalar bilan chalg'itmasdan, ularning tarbiyasida muntazam ravishda shug'ullanish lozim. Ularni ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari va an'alarini qadrlashga o'rgatishimiz, ularning mohiyatini tushunish, qadriga yetishlari uchun yo'l-yo'riq ko'rsatishimiz lozim.

MUHOKAMA

Jamiyatimizni rivojlanishida, obro'-e'tiborli bo'lishda, shuhrati tobora orta borishda ma'naviy javobgarlik nihoyat yuksak darajalarga ega bo'ladi. Ma'naviy sohadagi javobgarlik inson bilan bog'liq bo'lgan hamma qadriyatlarni takomillashtirishning umuminsoniy ideal va axloq talablarini kundalik odat talablariga aylantirishni yo'lga qo'ymog'i kerak. Madaniy-ma'naviy kamolot ijtimoiy jarayon sifatida hamma sinfiy ijtimoiy guruh va toifalarni tarbiyalashni ko'zda tutadi. Hozirgi sharoitda ma'naviy javobgarlikning vazifa doirasi yanada kuchaymoqda. Jamiyatning ma'naviy javobgarlikni yuksaltirishga ijodiy yondoshish va pok ma'naviy muhitini vujudga keltirish borasida ijtimoiy ziyolilarning roli yanada ortib bormoqda. Qayta qurish davrida ma'naviy tarbiya uchun eng muhim narsa, kechayotgan davrning g'oyat murakkabligini, hal etilishi

lozim bo'lgan vazifalarining jiddiyligi va keskinligini har bir kishi anglab olishga erishishidir.

Bu o'zgarishlarni harbiylarning ijtimoiy ongi, psixologiyasi, tafakkurini tubdan o'zgartirmay turib amalga oshirib bo'lmaydi. Harbiylarning ma'naviy kamoloti qayta qurishning ma'naviy o'zagini tashkil etib, qotib qolgan dunyoqarashini o'zgartirishda, hal qiluvchi vosita rolini o'taydi. Ma'naviy tarbiyani bir ta'sirchan vositasi bu axloqiy kamolot hisoblanadi. Axloqiy kamolot xususida gap yuritganimizda yuksak vatanparvarlik tuyg'usi har bir madaniyatli kishi uchun zaruriy fazilat ekanligini alohida ta'kidlaymiz. Axloq ijtimoiy hayotning barcha sohalarida insonlar xulq-atvorini tartibga solish ijtimoiy vazifasini bajaruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Axloq bu jamoatchilik tomonidan qabul qilingan, insonlarning jamiyatda, oilada, mehnatda va bir-birlariga munosabatlaridagi xulq-atvorga qo'yiladigan talablar, me'yorlar va qoidalarning yig'indisidir.

Ma'naviy tarbiyani bir ta'sirchan vositasi bu matbuot bo'lib, u ham shaxsni siyosiy-g'oyaviy jihatdan barkamol ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Hozir respublikamizda jami 1 milliard nusxadan ko'proq bo'lgan 288 ta ro'znoma, 60 million nusxadan ko'proq, 80 ta jurnal chiqarilmoqda. Har yil jami 44 million nusxada 2000 dan ko'proq nomda kitob va risolalar nashr etilmoqda. Bu jamiyatimizda ma'naviyatimizni rivojlanishiga dalolat beradi. Ma'naviylik va madaniylik normalari odamlar faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan tabiiy va aniq-ravshan talablardir. Jamiyatda ma'naviy javobgarlikni tiklashga jarayon sifatida qarash va quyidagi jihatlarga e'tiborini qaratish lozim.

1. Xalqimiz istiqlol tufayli siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritilganligi.
2. O'z taqdirini o'zi belgilashning chinakam egasi bo'lganligi.
3. O'zining ma'naviy-tarixiy ildizlarini o'rganish imkoniyati paydo bo'lganligi, ammo uni juda murakkab jarayonlarda amalga oshirilayotganligi.

Har gal jamiyatimizni ma'naviy jihatdan yangilash, o'sib kelayotgan avlodni milliy madaniyat, milliy mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalash masalasi ko'tarilganda ona-Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishga alohida urg'u beriladi. Vatanga muhabbat hissi bu jamiyatdagi ma'naviy shakllanishning chuqur ildizini ochib beruvchi o'ziga xos kalitdir. Ayni paytda Qurolli Kuchlarni isloh qilish ishlari shiddat bilan olib borilmoqda. Bu shaxsiy tarkibning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalasini birinchi o'ringa olib chiqmoqda. Shunday ekan ma'naviy - axloqiy tarbiya eng avvalo harbiy xizmatchilarning mavjud haqiqatga bo'lgan munosabatiga asoslanadi. Bu munosabat:

Birinchiidan harbiy xizmatchilarning dunyoqarashi darajasi, madaniyati bilan hamohangdir.

Ikkinchiidan, harbiy xizmatchi O'zbekiston mustaqilligini yanada mustahkamlashda harbiy ta'lim zaruriyatini qay darajada idrok etishga bog'liq.

Uchinchiidan, har bir harbiy xizmatchiga jamiyatimiz har qaysi fuqarosiga o'zligini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar berayotgan va bu orqali mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishga erishish mumkinligini to'g'ri anglatishi zarur.

XULOSA

Ma'naviyatni yuksaltirish masalalariga bugungi kunda e'tibor kuchayib bormoqda. Bu bejiz emas albatta, chunki kelajagi buyuk davlat egasi bo'lmasdan komil insonni tarbiyalashi, uni ma'nau va axloqan barkamol qilmasdan turib, buyuk kelajak to'g'risida gapirib bo'lmaydi. Mafkurasiz hech qanday jamiyat, davlat qurib bo'lmaydi. Bu borada o'tmish milliy ma'naviyatimizni, madaniyatimizni o'rganib, yoshlarimizda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirib, ilm-fanga qiziqish va intilishni rivojlantirish zarur. Yuksak darajada mamlakat davlat qurish uchun harbiylarning bilimi chuqur, dunyoqarashi keng, tafakkuri sog'lom bo'lishi kerak. Bunday yoshlar inson dunyoga faqat yeb-ichish, boylik orttirish uchun kurashib, qo'lidan kelgancha mehnat qilishi, ijtimoiy muhitni, turmush sharoitni o'zgartirish maqsadida dunyoga kelishini chuqur his qilish lozim. Ta'lim-tarbiya tizimi, harbiy va murabbiylar hayotiga o'z-o'zini anglashda, xalqning, millatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida bosib olgan murakkab yo'lga, ajdodlarimizning ma'naviy-madaniy, ilmiy, diniy, falsafiy, ma'rifiy merosiga qarashlari va g'oyalariga har bir kishining bevosita bog'liqligini chuqur va atroflicha his qilishlariga ko'maklashishi lozim. Harbiylarda milliy o'zlikni anglashni, millatga uning tarixiga mansubligini his qilishi shakllantirish kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jarayoniga alohida e'tibor qaratilayotgan ayni paytda yangicha dunyoqarashni shakllantirish zaruriyatiga aylandi. Tarbiya masalalarini hal etishda bugun biz buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosiga, xalqimizning qahramonona an'alariga yangicha o'quv-tarbiya bazasiga tayanishimiz kerak.

Ma'naviy-axloqiy yo'nalishda: vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, do'stlik, jonkuyarlik, fidokorlik, halollik, mehnatsevarlik, epchillik, tejamkorlik, zehnlilik, sezgirlik, savodxonlik, faollik, qat'iyatlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, ezgulik va boshqa fazilatlarni tarbiyasini tiklash zarur.

Vatan himoyachisini ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalab, unda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish-ma'naviy tarbiyaning zaruriy shartlaridan biri

bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarni jamlangan holda shunday umumiy xulosalarga kelishimiz mumkin: Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchilarni ma'naviy javobgarlik tarbiyasi asosida tuyg'ularini shakllanish shart va zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T, 2002
2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari. T., 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yilgi, 170-sonli qarori. T, 2004
4. Guruhda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.
5. Metodicheskie rekomendatsii po organizatsii pravovoy raboti VS RU. T., 1997.
6. Povishat effektivnost vospitatelnoy raboti (uchebno-metodicheskoe posobie). T., 2000 .
7. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya.T., 2004.
8. Sotiboldiev. A, Karimjonov A. Harbiy pedagogika. T., 2005